TARBIYADA YOSH INQIROZLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Madatova T., GDPI magistrti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiyada yosh inqirozlari va ularning xususiyatlari xaqida fikr bildirilgan. Rivojlanishning inqirozli va senzitiv davrlari**,** Inqirozli yoshdagi kritik davrlarda psixik faoliyatlarning rivojlanishi batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: fasilitator, ko‘nikma, malaka, ixtisoslik fanlari, interfaol metod, vositalar, metodlar, tizimi, shakllari, molellashtirish, mustaqil ta’lim.

Annotation. This article discusses the issues of youth crises in education and their characteristics. Crisis and sensitive periods of development, the development of mental activities in critical periods of crisis age are covered in detail.

Key words: facilitator, skills, qualifications, specialized disciplines, interactive method, tools, methods, system, forms, modeling, independent learning.

Asaba tizimi xususiyatlari tashqi ta’sir asosida o‘zgaradi, ammo, o‘tkinchi xarakterga ega bo‘ladi. U asosan jadal morfo- funksional yetilish davriga bog‘liq va u rivojlanishning inqirozli va sezitiv darvrlari haqidagi tushuncha bilan bog‘liq ravishda atrofga ta’sirning yosh sezgirligi fenomenini belgilaydi. Zamonaviy tsivilizatsiyalashgan dunyoda hayotida kamida bir marta yosh inqirozi tushunchasiga duch kelmagan odamlar yo‘q. Keling, ushbu masalani maqolamizda batafsil ko‘rib chiqaylik.

Barcha shunday davrlarda ba’zi tashqi ta’sirlarga vaqtinchalik chezgirlikni kuchayishiga qaramasdan, ularning xarakter xususiyatlari boshqacha bo‘ladi: sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar mazmuni, omillari, idrok qilishning tanlanganligi darajasi, noto‘g‘ri hattai harakatlarning natijasidagi vaqtinchalik tartib, har bir aniq vaziyatga o‘ziga xos qarashlari va ularning barchasini o‘zga xosligi kuzatiladi.

Inqirozli davrni aniqlanishi. “Inqirozli davr” tushunchasi avvaliga embriologiyaga fiziologik me’yorlar chegarasidan chiqadigan ta’sir etuvchi omillarga nisbatan sezgirlikni kuchayish davrini bildirish uchun kiritilgan.

Homilaning rivojlanish davrida har bir a’zo ma’lum inqirozli rivojlanish davrini boshidan o‘takazadi. Homilaga nisbatan salbiy ta’sirlar qaysi a’zoni rivojlanish davri ketayotgan bo‘lsa, aynan shu a’zoni rivojlanishini buzilishiga olib keladi. Ayna shu narsa salbiy ta’sirni vaqtiga bog‘liq ravishda “ rivojlanishning taqvimli bosqichlari” maxsus video tashxisda o‘ziga xos ifodasini topadi. Bundagi eng fojeali narsalardan biri, turli xil nutqsonli bolalaning tug‘ilishidir. Buning asosiy sabablaridan biri onaning homiladorlik davrida taliomid uyqu dorilarini iste’mol qilishidir.

Sezgirlikni tanlangan holda kuchayishida moddalar almashinuvi jarayonini tez o‘sayotgan a’zolar va to‘qimalarga ta’sir etadi. Umuman bolaning homiladorlikdagi rivojlanishidagi inqirozli davrlar jadal o‘sish va farqlanish darvlariga to‘g‘ri keladi va rivojlanish jarayonini morfogenez bosqichini qayd etadi.

Shu tariqa inqirozli so‘zining to‘liq ma’nosiga ko‘ra, organizmga ma’lum darajadagi ta’sirni sezgan davrini inqirozli davr deb nomlash lozim. Bu esa, uni keyingi normal rivojlanishini sharti hisoblanadi.

Inqirozli davrdagi o‘zgarishlar qaytmas xarakterga ega bo‘lib, natijada keyingi yosh davrlaridagi modifikatsion sezgirlikni yo‘qotib, uning tuzilishi va faoliyati tugallangan shaklga keladi.

Inqirozli davr rivojlanishning anatomo – morfologik o‘zgarishlar uchun xos bo‘lishi ehtimolidan holi emas. Ma’lum morfoligik yetilish davrlarida ular rivojlanishning xronologik variantlarini aks ettirishi mumkin.

Senzitiv davr xususiyatlari. “Senzitiv” atamasini rivojlanish faoliyatiga oldin va keyin katta ta’sir etuvchi stimullar to‘plamini angalatish uchun qo‘llash to‘g‘riroq bo‘ladi. Amalda sinzitiv davr o‘zida yuqori egiluvchanlikni aks ettirib, bunda faoliyat va tizim o‘zining modifikatsion o‘zgaruvchanlik qobiliyatlarini tashqi sharoitlarga mos ravishda namoyon qiladi. Bu vaziyatda ontogenezda hech bir davrda ma’lu ta’sirlarga nisbatan “buzilishli” davrlar kuzatilmaydi. Shunga qarmasdan kichik sezgirlik davri bu ta’sirldarni o‘zlashtirishi uchun qulay va optimal davr hisoblanadi. Inqirozli davr obrazli namoyon bo‘lib, “hozir yoki hech qachon” davrini anglatadi, sinzitivlik – “boshqa vaqtda ham bo‘ladi, ammo hozir yaxshiroq ” ligini bildiradi. Ontogenezda inqirozli va sinzitiv davrlarni ikki turdagi jarayonlar va tuzilmalarni yetilishi bilan qiyoslash mumkin.

Birinchilarga, “kutiladigan malakalarga” tashqi ta’sirlar rivojlanishni boshlovchi huddi trigger signallaridek, genetik darsturdagidek va vositachi ta’sirlarga bog‘liq bo‘lmasdan kelib tushadi(fiziologik me’yorlardagidek.) . “ Malakalarni kutadiganlar” - bu nasliy konservativ tuzilmalar va jarayonlar bo‘lib, ko‘rinadigan belgilarni aniqlovchi va individual o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lmay, bu turni namoyon qiluvchilarda bir xil bo‘ladi. “ Malakalarni kutish” davri inqirozli davr hisoblanadi, shuning uchun noto‘g‘ri malakalar kaytmas xarakterda bo‘lib, me’yoriy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yoshga bog'liq inqirozlarning davomiyligi qisqa, odatda eski va yangi o‘rtasidagi uyg'unlikni topish uchun bir necha oy kerak bo‘ladi, alohida hollarda - bir yil yoki undan ko‘proq. Inqiroz davrining boshlanishi va tugash kunini va hatto oyini aniq ajratib bo‘lmaydi. Chegaralar xiralashgan va ko‘pincha odamning o‘zi ham, atrof-muhit tomonidan ham tan olinmaydi. Bu vaqtda yaqin odamlar xatti-harakatlarning o‘zgarishini sezishlari mumkin, masalan, ba'zi tajovuzkorlik, samaradorlikning pasayishi, qiziqishning yo‘qolishi, boshqalar bilan nizolar paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, yosh inqirozi mavjud xususiyatlar va yangi olingan xususiyatlar o‘rtasidagi o‘ziga xos qarama-qarshilikdir. Bu qarama-qarshiliklar har qanday narsaga taalluqli bo‘lishi mumkin: motivatsion fazilatlar va qobiliyatlar, o‘z-o‘zini bilish, introspektsiya va boshqalar. Inson rivojlanishining har bir muhim davrida inson ijtimoiy rivojlanishning qayta tuzilishini boshdan kechiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Klimov E.A. «Общaya psixologiya». – Cpb., Piter, 2001
2.Nemov R.S.Psixologiya. M.: Vlados, 2003. 1-2-t.
3.Ivanov I., Zufarova M. “Umumiy psixologiya”. O‘z.FMJ., 2008.
4.Психология состояний. Хрестоматия // Составители Т.Н. Васильева, Г.Ш.